O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Ixtiyor ERMATOV

O‘ZBEK TILI

fanidan o‘quv kontenti

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: rus tili

Guliston – 2026

Ermatov I.

O‘zbek tili. O‘quv kontenti. Guliston – 2026. – 19 b.

Kontent – 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili) bakalavri yo‘nalishida tahsil olayotgan universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining rus tili va adabiyoti talabalari uchun tayyorlangan. Kontentda adabiy til uslublari va ularning xususiyatlari jahon va o‘zbek tilshunosligining so‘nggi yillarda erishgan yutuqlari asosida yoritildi. Kontent – nutq uslublari, til va uslub, nutqiy uslublar va til vositalari, nutqiy uslublarning asosiy turlari, ilmiy uslub, ilmiy leksika, so‘z va termin munosabati, so‘z va termin munosabatidagi farqli jihatlar, termin va so‘z munosabatidagi o‘xshash jihatlar, soha terminlari haqida ma’lumot beriladi.

Kontent universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining rus tili va adabiyoti bakalavrlariga mo‘ljallangan. Undan tilshunoslik masalalari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy xodimlar, magistrlar va aspirantlar ham foydalanishi mumkin.

M a s ’ u l m u h a r r i r:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent J.Abdullayev

T a q r i z ch i l a r:

filologiya fanlari doktori, dotsent A.Uralov

filologiya fanlari nomzodi, dotsent H.Yodgorov

MAVZU. ADABIY TIL USLUBLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. Nutq uslublari.
2. Til va uslub.
3. Nutqiy uslublar va til vositalari.
4. Nutqiy uslublarning asosiy turlari.

Tayanch so‘zlar: *Til, uslub, so‘zlashuv uslubi, publitsistik uslub, badiiy uslub, rasmiy uslub, ilmiy uslub.*

Til va uslub. ***Til*** nutq tashkil etib, fikr, his-tuyg‘u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuv, fikrlashuv quroli bo‘lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa. Nutqning u yoki bu uslubiy belgilari bilan ajralib turuvchi turi: *so‘zlashuv tili*, *gazeta tili*, *adabiy til* kabi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma’lum soha darajasida, ma’lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko‘rinishi *nutq uslubi* hisoblanadi. So‘zlar ham ma’lum nutq uslubida xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: *uslubiy xoslangan so‘zlar* va *uslubiy betaraf so‘zlar.*

Qo‘llanishi ayrim nutq uslubi bilan chegaralanmaydigan so‘zlar uslubiy betaraf so‘zlar deyiladi. Masalan, *quyosh, oy, kel, ket, qo‘l, oldi, ketdi, kuldi, yozdi, o‘qidi.*

Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo‘llanadigan so‘zlar *uslubiy xoslangan so‘zlar* deyiladi. Masalan, *ilmiy uslubga xos so‘zlar: urg‘u, ergash gap, unli, fe’l, ravishdosh* kabi terminlar tilshunoslik sohasiga oid.

⁉ **1-topshiriq.** Berilgan matnning qaysi uslubga xosligini aniqlang va uning o‘ziga xos belgilarini aytib bering.

Qaysi bir yili olis bir qishloqdan o‘gay akasi kelib, uch-to‘rt kun qo‘nib ketgan edi. U ham o‘ziga o‘xshagan mo‘min-musulmongina chol bo‘lganidan juda topishdilar. Har kun xonaqohga birga borardilar.

– So‘fi, biror kasb peshasini tutmay o‘tib ketayotibsiz-a? – dedi akasi xonaqohga keta turib.

– E-e, – dedi so‘fi cho‘zib va o‘zidan xursand kulimsirash bilan bir kulimsiradi, – mening davlatim hech kimda yo‘q, aka! Eshon bobo Xudoyimning sevgan quli, noz-u ne’mat to‘rt tarafdan suvday oqib turadi. Daryo bo‘yidamiz-u chanqaymizmi? G‘alati ekansiz.

Shu kulimsirash bilan biroz borgandan keyin bu safar jiddiyroq qilib dedi:

– Ahliyamiz ham uchiga chiqqan chevar, Xudoga shukur. Ojizamiz ham do‘ppi tikishga “farang” bo‘lib chiqdi! Ro‘zg‘orning ko‘p-kamlarini o‘zlari bitirishadi. Men bohuzur tasbehimni aylantirib yotsam bo‘la beradi.

(Abdulhamid Cho‘lpon)

⁉ **2-topshiriq.** Quyidagi matnning qaysi uslubga oidligini aniqlang va unga tavsif bering. Uni namuna sifatida qabul qilib o‘zingiz ham shunga o‘xshash misollar toping.

O‘zbek adabiy tili quyidagi uslublar orqali namoyon bo‘ladi: *1) so‘zlashuv uslubi; 2) publisistik uslub; 3) ilmiy uslub; 4) rasmiy uslub; 5) badiiy uslub.*

Publitsistik uslub. Ommaviy axborot vositalari uslubi *publitsistik uslub* hisoblanadi. Publitsistik uslubning ikki shakli mavjud: publitsistik uslubning og‘zaki shakli va publitsistik uslubning yozma shakli**.** Radio-televideniya uslubi publitsistik uslubning og‘zaki shakliga xosdir. Masalan, *Bahor... Bu kun olam*

uyg‘onmoqda. Ana, yam-yashil maysalar xuddi jajji qizg‘aldoqlar kabi qiqirlab bosh ko‘tarmoqda. Quyosh olam uzra iliq-iliq nurlarini taratmoqda. Gazeta, jurnal uslubi publitsistik uslubning yozma shakliga xosdir. Masalan, *Shoshilish zo‘riqishga olib keladi. Qadamingni o‘rinsiz tezlashtirsang, qoqilib yiqilishing mumkin. Qo‘l harakatingga zo‘r bersang, uni bunga urishtirib yuborishing, tilingni shoshiltirsang, nokerak gapni aytib qo‘yishing, aqlingni shoshiltirsang xom xulosalarga kelib qolishing mumkin* (T.Sodiqova).

⁉ **3-topshiriq.** Gazetaga sohaga oid maqola yozing.

⁉ **4-topshiriq.** Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidan olingan quyidagi parchani o‘qing. Og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos o‘rinlarni topib, izohlang.

So‘fi yana past toifa oldida muborak og‘zini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur bo‘ldi:

– Badbaxt fitna! Qo‘yasanmi-qo‘ymaysanmi, axir?!

“Hubbuli vatani minal imon”deganlar – Vatanni sevish imondan”, axir! Bilmasang, bekor-da! Vatani yo‘q – dunyoda lo‘li xolos. Meni bevatan deb bildingmi?

So‘fi biroz qizib ham ketdi.

– Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o‘zimniki deysanmi yo? Unday desang, boshput olib, o‘risvoyning religa tushib, “ayt” deb Makkatilloga jo‘nab qolaman. Hovling boshingdan qolsin, fitna!

Bu safar Qurvonbibi yalinib-yolvorib zo‘rg‘a tinchitdi.

Chinakam, so‘fida hajga borish niyati kuchli. Har yili javraydi. Bir-ikki marta pasport oldi ham. Faqat, nima uchundir, oyog‘ini o‘z shahrining tuprog‘idan uza olmaydi.

Badiiy uslub. Ma’lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo‘l bilan tinglovchiga estetik ta’sir etuvchi nutq uslubi. Masalan, *Martning oxirgi kunlari. Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz kuyga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanda, bahor kelganidan bexabar, hanuz g‘aflatda yotgan o‘t-o‘lanni, qurt-qumursqani uyg‘otgan, avvalgidan ham yorug‘roq, avvalgidan ham issiqroq shula sochayotganday tuyuladi* (Abdulla Qahhor). Badiiy asarlarni ko‘p o‘qigansiz. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasi badiiy asarlar orqali namoyon bo‘ladi.

Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi. Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olish bilan birga, o‘zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste’moldan chiqib ketgan tarixiy so‘zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi.

Badiiy uslub o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro‘yobga chiqqan nutq ma’lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o‘quvchiga ta’sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so‘zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo‘laveradi.

5-topshiriq. Quyidagi sinonimiya qatoridagi so‘zlarni quyidagicha yozing.

1) salbiylik xususiyatiga ega: turq, ...

2) ijobiylik xususiyatiga ega: chehra, ...

Gavdali, jussali, barvasta, norg‘ul, qomatdor, barzangi; novcha, daroz, naynov, uzun; bosh, kalla; noaniq, dudmal, noma’lum, notayin, belgisiz, mubham; burun, tumshuq.

So‘zlashuv uslubi. Kundalik hayotda uyda, ko‘cha-ko‘yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi *so‘zlashuv uslubi* orqali yuzaga chiqadi.

Oddiy so‘zlashuv uslubida so‘zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli so‘zlarnigina ishlatadi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to‘ldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so‘raysiz:

– Beshinchidan ikkita (Menga beshinchi qatordan ikkita chipta bering deb o‘tirmaysiz).

So‘zlashuv uslubining o‘zi ikki turga bo‘linadi: 1) adabiy so‘zlashuv uslubi; 2) oddiy so‘zlashuv uslubi.

Ma’lum adabiy til me’yorlariga bo‘ysungan, tartibga solingan so‘zlashuv uslubiga adabiy *so‘zlashuv uslubi* deyiladi.

Adabiy tilning og‘zaki shakli adabiy so‘zlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radioeshittirishlari, teleko‘rsatuvlari shunday uslubda olib boriladi.

Adabiy til me’yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli *oddiy so‘zlashuv uslubi* sanaladi.

Oddiy so‘zlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, bunga teskari bo‘lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo‘l qo‘yiladi.

Oddiy so‘zlashuv uslubida gap bo‘laklarining tartibi ham ancha erkin bo‘ladi. Ba’zan shevaga xos so‘zlar, qo‘pol, dag‘al so‘zlar ham kuzatiladi, lekin bularni qo‘llash so‘zlovchining madaniy nutq sohibi emasligini ko‘rsatadi.

Shuning uchun sizning oddiy so‘zlashuv nutqingizda ham o‘zingizning yuksak madaniyatingizni namoyish eting.

⁉ **6-topshiriq.** Gaplarni o‘qing, og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos o‘rinlarni izohlang.

Otasi yoki u tengi boshqa kishiga “paxan”, “boboy”, onalariga “babulya”, “babushka”, “kampirsho”, aka-ukalariga nisbatan “brat”, “bratan”, “bratishka” deb murojaat qilayotgan noqobil farzandlarning bunday noxush so‘zlari quloqqa og‘ir eshitiladi.

Ayrim hollarda esa ismlarning ruscha-hindcha shakllarda o‘rinsiz qisqartirilib aytilishi ham yoqimsiz tuyuladi. Xayrishka, Masha, Borya, Gulya kabi.

Ko‘cha-ko‘yda, avtobuslarda, o‘quv dargohlarida “xey”, “vey”, “xov” deb yoki hushtak chalib chaqiradigan, yor-do‘stlariga Baxti, Mamash, Alish deya murojaat qiladigan yoshlar ham uchrab turadi.

Bularning hammasi o‘ta madaniyatsizlik, odob me’yorini bilmaslik sanaladi.

(A. Mirzaboboyev)

⁉ **7-topshiriq.** Uslubiy xususiyat kasb etgan egalik va kelishik qo‘shimchalari qatnashgan so‘zlarni aniqlab, izohlab ko‘chiring.

Namuna: onalarning – onalardan

1. Benuqson, eng muqaddas sanalgan onalarning biri bo‘lishini, hamma ularga havas qilishini orzu qiladi doim. (J.Abd.) 2. Bir kuni trassaga yaqin joyda Mohidil Zubaydaning rangi-ro‘yi o‘chgan holda uchratdi. (J.Abd.) 3. Shundan keyin Qizilqum mashina kanali jahonda eng birinchi va eng katta qurilishlardan biri ekanligini ta’kidlab o‘tildi. (J.Abd.) 4. Biroq shuni aytib qo‘yayki, bu Qudratingizga ham kafil bo‘lolmayman. (J.Abd.) 5. Qum sochlaringning ich-ichiga

kirib ketadi-ya, tavba. (J.Abd.) 6. Bu uning hadeb ko‘z yosh to‘kib yig‘lashdan to‘xtatdi. (Mirm.) 7. – Jo‘lomon! Qulunim Jo‘lomon, qanisan? – deb chaqira boshladi Nayman ona. (Ch.Ayt.) 8. Olmosh ot, sifat va sonning o‘rniga almashib qo‘llanadigan so‘z turkumidir. (“O‘zb. tili gr.”) 9. Qo‘chqor. Olimtoy, jigarim! Gap undoq... (Sh.Boshbekov) 10. Ko‘pchilik tillarga xos bo‘lgan bu qonuniyat o‘zbek tilida ham asosan mos keladi. (“O‘zb. tili gr.” 2.) 11. Qudrat uning tavbasiga tayantirganini, qancha ortiqcha pul yozdirib olgan bo‘lsa, hammasini to‘layman deb va’dasini olganini aytdi. (J.Abd.) 12. “Mumkin ekan-ku? Shu narsani nega ilgariroq aqlingizga kelmaganiga hayronman”, deb qo‘ydi Qudrat ichida. (J.Abd.) 13. – Bu kitoblardan o‘qigandirsiz? – dedi Saidiy tutilib. (A.Q.) 14. Hokim to‘ra telefon berdi, mendan bir oz koyidi. (CH.) 15. Boybo‘rining o‘g‘lining otini Hakimbek qo‘ydi, o‘ng kiftiga besh qo‘lini urdi. (“Alpomish”dan).

⁉ **8-topshiriq.** O‘qing. Uslubiy xususiyatga ega bo‘lgan son va olmoshlarni aniqlab, izohlang.

1. Birdan oldinga munkib, ikkovi ot ham gursillab yiqildi. (M.Ism.) 2. Dalaning ko‘chasi qishdan boshqa vaqtda suv ko‘rmagani uchun ikki gaz keladigan bilq-bilq guppon tuproq, yigirma-o‘ttiz uloqchi birdaniga yo‘l bosib, qaysi otini choptirib, qaysi lo‘killatib boradi. (A.Qod.) 3. Zaynab bir qizini uzatgan, uning ikki bolasi bor edi. (S.Ahm.) 4. Husn bozorini kechqurunlar ana bu yerda tomosha qil! (O.) 5. Salti bermadi, bu olmoq istadi; Salti qochdi, bu quvladi. (CH.) 6. U yarim hazil, yarim chin qilib: – Men emas, o‘sha sobiq zamministrlaringiz kamina bilan quda bo‘layotganidan faxrlansin! – dedi. (O.Y.) 7. Sizga aytadigan endigi gap shukim, boshda Chavandoz yanglish yozganmi, bilmadik, biz Eshmat Mo‘minov bo‘lmay, Eshvoy Mo‘minov bo‘lib ketibmiz. (O.Y.)

⁉ **9-topshiriq.** Grammatik sinonimlarni aniqlab, sinonimik qatorlar hosil qilib yozing.

Namuna: kelyapti – kelayotir – kelmoqda.

Kelyapti, o‘quv, qizaloq, borishdi, paxtadan (boyidi), cho‘lda (kezdi), mehmonlarning (biri), teshikdan (sig‘adi), yutuqlarini (aytdi), yumushdan (gapiring), dalani (aylandi), kelayotir, kinoni (hikoya qildi), yurgiz, ish haqida (so‘radi), o‘qish, singlisiga (oldi), eshikka (sig‘adi), do‘sti uchun (asradi), o‘tirganlardan (kattasi), ko‘rganlaridan (gapirdi), ikkalasi, do‘sti orqali (eshitdi), bordilar, kelmoqda, o‘qimoq, qoraroq, doston haqida (so‘zladi), oqish, qizcha, ko‘kimtir, uchovlon, terdir.

ILMIY USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Ilmiy uslub. Ilmiy leksika.
2. So‘z va termin munosabati.
3. So‘z va termin munosabatidagi farqli jihatlar.
4. Termin va so‘z munosabatidagi o‘xshash jihatlar.
5. Soha terminlari.

- **Tayanch so‘zlar:** *Til, uslub, ilmiy uslub, ilmiy matn, ilmiy leksika, so‘z va termin, soha terminlari.*

So‘z va termin munosabati. ***So‘z va termin munosabatidagi farqli jihatlar.*** So‘z – tilning asosiy birligidir. Tilni nutq tovushlarisiz, grammatik shakllarsiz va kommunikatsiya jarayonidan tashqarida tasavvur qilish mumkin emas. Nutq tovushlari tizimi, morfologik shakllar majmuasi va kommunikatsiya uchun xizmat qiluvchi qurilmalar – hammasi birgalikda tilni, uning bir butun

organizmini tashkil etadi. Shularning barchasi so‘z yordamida shakllanadi. Shuning uchun so‘z tilning asosiy va markaziy birligi sanaladi.

So‘zning funktsional-semantik ko‘rinishlaridan biri, yuqorida ham aytilganidek, termindir.

Termin, ifoda planiga ko‘ra, tilda rasmiy lisoniy maqomga ega so‘zlardan farq qiladi. Chunki termin maqomida ish ko‘ruvchi ayrim lisoniy birliklarning ifoda plani so‘znikiga qaraganda qurilish va bog‘lanish jihatdan ancha murakkab (so‘z birikmalari xarakterida) bo‘lishi ham mumkin (masalan, *ergash gapli qo‘shma gaplarni eslatuvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar // ergash gapli qo‘shma gaplarga sinonim bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar* kabi).

Lisoniy maqomdagi so‘z bilan lisoniy maqomdagi termin munosabatidagi farq ularning ayni shu, ya’ni ifoda plani bilangina cheklanmaydi. So‘z va termin orasidagi farq ularning mazmun planiga xos vazifasiga ko‘ra ham belgilanadi va bu xususiyat so‘z va terminni lisoniy farqlashda muhim va asosiy mezon hisoblanadi. So‘z va termin munosabatidagi bu farq, eng avvalo, quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:

a) so‘z terminga nisbatan avval paydo bo‘ladi;

b) so‘z xalq tomonidan yaratiladi, ya’ni so‘zning “ijodkori” xalqdir, termin esa, muayyan soha mutaxassislari, ayrim shaxslar tomonidan “ijod qilinadi” (masalan, *fonema, morfema* terminlarining “ijodkori” I.A.Boduen Kurtene bo‘lsa, “*til kontakti*” terminining “ijodkori” Andre Martinedir);

v) so‘z til lug‘at tarkibida bir xil amal qiluvchi lisoniy birlikdir, terminning amali esa, lug‘at tarkibida nisbatan cheklangan bo‘ladi, chunki terminologik tizimda ko‘p ma’nolilik kam uchraydigan semantik hodisadir. Shuningdek, terminologik tizimga mansub terminlar ko‘p ma’noli lug‘aviy birlik emas, balki ko‘p vazifali lug‘aviy birlik tavsifida bo‘ladi;

v) termin so‘z bazasida shakllanadi, termin bazasida so‘z shakllanmaydi;

g) so‘z umumxalq mulki, u til jamoasining hamma ijtimoiy qatlamlari uchun bir xil xizmat qiladi. Termin esa til jamoasining ayrim ijtimoiy qatlamlari uchun xoslangan bo‘ladi;

d) so‘zlarda shakliy munosabatning antonimik (qarama-qarshi) turi amal qilsa, terminlarda uning ekvonimik (tenglik) turi faol amal qiladi;

e) so‘zlarning mazmun planini lisoniy ma’nolar tashkil qiladi, terminlarning mazmun planini esa tushunchalar tashkil qiladi. Lisoniy ma’nolar bu so‘zning umumxalq tilida mushtarak tushuniladigan semantik tomonidir. Masalan, *daraxt, tosh, suv* va h.k. so‘zlar o‘zbek millatiga mansub barcha shaxslar tomonidan bir xil tushunilaveradi, biroq *affiks, ega, aniqlovchi* terminlari ma’nolarini faqat kasbi (mutaxassisligi) til ilmiga ixtisoslashgan shaxslargina mushtarak tushunadi, xolos;

y) so‘z ma’nolari obyektiv borliqdagi real narsa-predmetlarni yoxud muayyan millat xotirasida ommaviy rasmiylashgan mavhum “narsa-hodisa”larni bildiradi; terminlar anglatgan “ma’no”lar esa ayrim guruhdagi shaxslar xotirasida mushtarak rasmiylashgan noreal tushunchalarni bildiradi. Masalan, yuqorida keltirilgan *daraxt, tosh, suv* so‘zlari ma’nolari tabiatda o‘z moddiy asosiga ega real “narsa”lar bo‘lsa, *xayol, oqibat, mehr, yaxshilik, salomatlik* va h.k. so‘zlar ma’nolari o‘zbek millatiga mansub barcha shaxslar xotirasida bir xil rasmiylashgan noreal “narsa-hodisa”lardir.

Terminlar ma’nosidan anglashilgan tushunchalar esa, xalq xo‘jaligining yoxud fan va texnikaning qaysi sohasi bo‘lmasin, ular ma’nosi asoslangan tushunchalar faqat ayrim guruhga mansub shaxslar xotirasida rasmiylashgan real yoxud noreal “narsa-hodisa”larni bildiradi. Ijtimoiy fanlar, xususan, tilshunoslik terminlari anglatgan ma’nolar faqat noreal tushunchalarga asoslanadi. Masalan, *kelishik kategoriyasi, egalik kategoriyasi, olmosh, sifat, yuklama* va h.k. terminlarning ma’nosi asoslangan tushunchalar o‘zbek tilshunoslari xotirasida rasmiylashgan noreal kasbiy tushunchalardir;

j) so‘z tarkibining funktsional qismlari morfemalar xarakterida bo‘ladi, chunki qo‘shma, juft va tarkibli so‘zlarning lug‘aviy ma’no anglatuvchi qismlari ham morfemalardir, ya’ni ular o‘zak morfema tavsifida bo‘ladi. Terminlar tarkibining funktsional qismlari ham morfema va ham so‘z shakllari (glossema) xarakterida bo‘laveradi. Masalan, *ega, son, fe’l, ravish, gap* va h.k. terminlar morfem tarkibi faqat o‘zaklar xarakterida bo‘lsa, *kelishik, kesim, to‘ldiruvchi,*

aniqlovchi, unli, undosh va h.k. terminlar “o‘zak/affiks” xarakteridadir. *Bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi; mavhum ot, jamlovchi ot* va h.k. terminlar ikki so‘z shaklidan tashkil topgan oddiy so‘z birikmalari sanalsa, *bog‘langan qo‘shma gap, ergash gapli qo‘shma gap, bog‘langan qo‘shma gaplarni eslatuvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gap, ergash gapli qo‘shma gaplarni eslatuvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gap* va sh.k. boshqa bir qator terminlar turlicha lisoniy qiymatdagi so‘z shakllaridan tuzilgan murakkab so‘z birikmalaridir;

z) termin va so‘z munosabatidagi farqli jihatlardan yana biri ularning (so‘z va terminlarning) ma’no ko‘lamiga ko‘radir: terminning ma’no ko‘lami so‘zning ma’no ko‘lamiga nisbatan tor va iste’mol doirasi cheklangan. Masalan, tilshunoslikda *otning ko‘plik shakllari, otning kelishik shakllari, otning egalik shakllari; fe’l zamonlari, o‘tgan zamon fe’li, hozirgi zamon fe’li, kelasi zamon fe’li; bog‘langan qo‘shma gap, natija ergash gapli qo‘shma gap, bog‘lovchili qo‘shma gaplarga sinonim bo‘lgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar* kabi ko‘plab terminlar ishlatiladi. Ular ma’no bildirish jihatidan so‘zlardan farq qilmaydi, chunki so‘zlar ham ma’no bildiradi, terminlar ham, tarkibining sodda va murakkabligidan qatiy nazar, ma’lum sohaning tushunchasini anglatadi, biroq ularni shu holda, shu shaklda lisoniy rasmiylashgan so‘zlarga tenglashtirish ham to‘g‘ri emas.

So‘z va termin munosabatidagi farqlar yuqorida keltirilgan bu jihatlar bilan chegaralanmaydi, albatta. Termin va so‘z munosabatidagi dastlabki farqlar, asosan, ana shu jihatlarda ko‘zga tashlanadi.

Termin va so‘z munosabatidagi o‘xshash jihatlar. Shunisi ham borki, termin va so‘z munosabatida o‘xshash jihatlar ham bor. Bu ularning ma’no anglatuvchi birliklar ekanligida ko‘rinadi.

So‘z va terminlar tilning mazmun jabhasiga “qisman o‘xshashligi” shundaki, so‘zlarning mazmun jabhasi, yuqorida ham aytilganidek, umumxalq xotirasida mushtarak rasmiylashgan ma’nolarni o‘z ichiga olsa, terminlarning mazmun jabhasi muayyan fan-texnika va kasb-hunarga ixtisoslashgan ayrim guruh shaxslar xotirasida mushtarak rasmiylashgan *tushunchalarni* o‘z ichiga oladi. Tushuncha va

ma’no, garchand tilning mazmun jabhasiga tegishli mushtarak hodisalar sanalsa-da, ular o‘zaro farq qiladi: tushunchaning “amal hajmi” ma’noning “amal hajmi”dan kengdir, chunki ma’no tushuncha doirasiga kiruvchi ideal birlik hisoblanadi.

Terminlarning so‘zlar bilan til mazmun jabhasidagi yana bir o‘xshashligi shundaki, terminda ham so‘zda bo‘lgani kabi *dubletlilik, ko‘p ma’nolilik* va boshqa xususiyatlari mavjud.

Termin – so‘zning funktsional-semantik ko‘rinishidir. Terminning material tomoni so‘z yoki so‘z birikmasidan tarkib topadi. Biroq so‘z va termin o‘zaro farq qiladi. Bu farq shundaki, so‘z umumxalq mulki, u til jamoasining hamma ijtimoiy qatlamlari uchun bir xil xizmat qiladi. Termin esa til jamoasining ayrim-ayrim ijtimoiy qatlamlari foydalanishi uchun xoslangan bo‘ladi.

Terminning ma’no hajmi so‘znikiga nisbatan tor, iste’mol doirasi chegaralangan. Shuningdek, so‘zning shakliy tomoni terminning shakliy tomoni bilan hamma vaqt ham muvofiq kelavermaydi. Masalan, qishloq xo‘jaligi texnikasiga qarashli *paxta terish mashinasi, ariq qazish mashinasi, quvvat olish vali, moylash sistemasi* singari terminlar mavjud. Ular,

birinchidan, rus tilidan kalkalash (tarjima qilish) yo‘li bilan o‘zlashtirilgan;

ikkinchidan, birdan ortiq so‘z (*paxta, terish, mashina; ariq, qazish, mashina; quvvat, olish, val; moylash, sistema*)dan tarkib topgan;

uchinchidan, qishloq xo‘jaligi texnikasining aniq bir turi va uning ayrim qismlarini nomlagan;

to‘rtinchidan, ularning iste’moli uchun, uning barcha ijtimoiy tabaqalari uchun mo‘ljallanmagan.

Shunga o‘xshash xususiyatlarni turli fanlar sohasida ham uchratish mumkin.

Chunonchi, o‘zbek tilshunosligida *otning kelishik shakllari, otning egalik shakllari; fe’l zamonlari, uzoq o‘tgan zamon fe’li; bog‘langan qo‘shma gap, ergash gapli qo‘shma gap, natija ergash gapli qo‘shma gap, bog‘lovchili qo‘shma gaplarni eslatuvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gap* singari bir necha o‘nlab terminlar ishlatiladi.

Terminologik tizimda terminlarning shakldoshligi, ya’ni omonimiyasi alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Terminlar omonimiyasining bir ko‘rinishida umumxalq tiliga mansub oddiy so‘zlar bilan biron-bir fanga va uning tarmog‘iga xos tushunchalarning nomi bir shaklga ega bo‘ladi. Masalan, *assimilyatsiya* shaklidagi lug‘aviy birliklar tilshunoslik, botanika, etnografiya; *yadro* shaklidagi lug‘aviy birliklar fizika, botanika, matematika, tilshunoslik fanlari doirasidagi tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladi.

Bu lug‘aviy birliklar anglatgan tushunchalar va ularning ma’nolari munosabatida hech bir aloqadorlik yo‘q. Shularni hisobga olgan holda, leksikologiyada termin va ular tizimi xususiyatlarini o‘rganuvchi maxsus tarmoq shakllangan. Bu tarmoq *atamashunoslik* deyiladi.

Shu narsa muhimki, so‘z va termin oralig‘idagi farq jiddiy emas: termin ham so‘zning vazifaviy ko‘rinishlaridan biri. So‘z ham termin, tilning nominativ vazifaga xoslangan birligi.

Yuqoridagilardan chiqadigan xulosa shuki, leksikaning qaysi jabhasida bo‘lmasin, so‘z o‘rganiladi. Shuning uchun so‘z leksikaning eng muhim va markaziy lisoniy birligidir.

Ilmiy uslub. Ilm-fan sohasida qo‘llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.

Ilmiy uslub daliliy ma’lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta’rif-qoidalarga) ega bo‘lish, atamalarining keng qo‘llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslub ham o‘z ichida ikki guruhga bo‘linadi: 1) sof ilmiy uslub; 2) ilmiy-ommabop uslub.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qo‘llaniladi. Shuning uchun bu uslubda fanning ma’lum sohasiga doir atamalar keng qo‘llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq bo‘ladi. Ma’lum fan sohasiga doir atamalar qo‘llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo‘lishi uchun izohlanadi.

Sof ilmiy uslubning o‘zi ham fan tarmoqlari bo‘yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo‘ladi.

⁉ **1-topshiriq.** *Bildirishnoma, tilxat, ishonch qog‘ozi, majlis bayoni, dalolatnoma* kabi ish qog‘ozlarini yozing. So‘ng ularni birgalikda tahlil qiling.

Namuna:

ISHONCH QOG‘OZI

Men, Urganch akademik litseyining 2-bosqich talabasi O.Olloberganov, menga litsey tomonidan ajratilgan mukofot pulini sinfdoshim A.Do‘simovning olishi uchun ishonch bildiraman.

A.Do‘simovning tug‘ilganligi haqidagi guvohnomasi № TN 5891346.

(imzo) O.Olloberganov

2024-yil 8-fevral

⁉ **2-topshiriq.** Iqtisodiyot sohasiga oid quyidagi matnni o‘qing. Ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering. Atamalarni daftaringizga ko‘chirib yozing va izohlang.

Bozorda, tovar muomalasi jarayonida tovar pulga almashinishi (sotish) va pulning tovarga almashinishi (xarid qilish) sodir bo‘ladi. Bunga tovar-pul munosabatlari deyiladi. Shuning uchun ham bozor pul vositasida tovarlar oldi-

sotdisi asosida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. U xaridorlar va sotuvchilarni birga qo‘shuvchi mexanizm sanaladi.

Bozor iqtisodiy kategoriya sifatida takror ishlab chiqarishning ayirboshlash bosqichiga xosdir. Bu yerda ayirboshlashni tushunish kerak. Bir tovar to‘g‘ridan to‘g‘ri (barter yo‘li bilan) ikkinchi bir tovarga almashganda bozor munosabatlari yuzaga kelmaydi. Bundan ko‘rinadiki, bozorning eng muhim sharti pul bo‘lib, tovar ayirboshlashganda u vositachi bo‘lishi kerak. Berilgan ta’rifga ko‘ra aytish mumkinki, bozor jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimining murakkab iqtisodiy tarkibiy qismidir, chunki u ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi o‘rtasida markaziy o‘rin tutadi. Demak, jamiyat rivojlanishining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tomonlarini ham qamrab oladi.

⁉ **3-topshiriq.** Quyidagi atamalar asosida ilmiy uslubga xos matn tuzing.

Vazn, aruz, qofiya, she’riy janr, tuyuq, misra, radif, ruboiy, oddiy ruboiy, taronayi ruboiy.

⁉ **4-topshiriq.** So‘z va termin munosabatidagi o‘xshash jihatlarni sharhlang.

⁉ **5-topshiriq.** So‘z va termin munosabatidagi farqli jihatlarni sharhlang.

⁉ **6-topshiriq.** Sohaga oid terminlar ishtirokida matn tuzing, terminlarni sharhlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 528 b.

2. Mahkamov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. (Darslik). – Toshkent: Cho‘lpon, 2013.

3. Madvaliyev A., Odilov Y., Saidno‘monov A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent, 2023. – 440 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. “Xalq so’zi”, 2017-yil, 19-sentabr.

6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

7. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishdagi nutqi. “Xalq so‘zi”, 2019-yil, 21-oktabr.

8. 2019-yil 21-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5850-sonli Farmoni.

9. 2020-yil 20-oktabrda “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 6084-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 128 b.

11. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi Qonuni.

12. Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.

13. Azimova I., Mavlonova K., Jabborova M., Shokir Tursun. O‘zbek adabiy tili / O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 212 b.

14. Lutfullayeva D. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi taraqqiyoti (Monografiya). – Toshkent, 2020.

15. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1983.

16. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2013.